

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA ISLOMIY QADRIYATLARING O‘RNI

Ahmedova Shahlo Abduhakimovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi
2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, davlatimizni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishda xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz hayotida islomiy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Ona Vatanimizda mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda buyuk allomlarimizning boy diniy-ma‘rifiy merosini tadqiq va targ‘ib qilish borasidagi ishlar hamda milliy ma‘naviyatimiz takomilida islomiy qadriyatlarining bugungi avlodlar uchun muhim hisoblangan jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Islomiy qadriyatlar, ma‘naviy kamolot, ahloqiy fazilatlar, hadis, insonparvarlik, imon, ilm, ma‘rifat, tafakkur.*

ABSTRACT

This article discusses the role and importance of Islamic values in the lives of our people, especially our youth, in building a New Uzbekistan and bringing our state to a new stage of development. In the years after independence in our Motherland, work on the study and dissemination of the rich religious and educational heritage of our great scholars, as well as the aspects of Islamic values that are considered important for today's generations in the development of our national spirituality, will be highlighted. Keywords: Islamic values, spiritual perfection, moral virtues, hadith, humanity, faith, science, enlightenment, thought.

Key words: *Islamic values, spiritual maturity, moral qualities, hadith, humanitarianism, faith, knowledge, enlightenment, thinking.*

KIRISH

Milliy ma‘naviyatimiz takomilida Islomiy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari asrlar mobaynida milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy aloqada bo‘lib, xalqimizning yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analarida o‘z aksini topdi. U milliy qadriyatlarimiz bilan turli shakllarda va uzviy aloqada namoyon bo‘lib, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Hozirgi kunda xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlar yo‘lida muhtaram prezidentimiz boshchiligida ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Ya‘ni, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi

Renessans poydevorini qurish hamda davlatimizni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishda ma'naviy taraqqiyotni o'rni va ushbu sohani tubdan isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqdaki, buni alohida e'tirof etish o'rinlidir. Yurtboshimiz "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi kitobining beshinchi bo'limida ma'naviy taraqqiyotimizda milliy va islomiy qadriyatlarning o'rni haqida fikr yuritarkan, shunday yozadilar: "Islom dini-avvalo tinchlik va do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim"¹. Albatta insoniyat uchun hamisha tinchlik va sog'lik bilan bir qatorda bilim va ma'rifat ham bebaho ne'mat hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi fan texnika taraqqiy topgan asrimizda dunyoga teran nigoh bilan qaraydigan bo'lsak, ushbu ne'matlar qadrini yanada chuqurroq anglash qiyin emas. Hozirgi tezkor axborot asrida yosh avlodni avvalambor oilada ular ongini, qalbini chin insoniy fazilatli, ilm-ma'rifatli, irodali va umuman olganda yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda islomiy qadriyatlarimizning o'rni nihoyatda beqiyos ekanligini inkor etib bo'lmaydi: "Biz xalqimiz, avvalo yosh avlodimiz, shuningdek jahon jamoatchiligiga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz"².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islom dinining xalqimiz ma'naviy hayotidagi beqiyos o'rni va ahamiyati, osoyishta hayot kechirishga da'vat etuvchi asl insonparvarlik mohiyatini har tomonlama o'rganish va targ'ib qilishga istiqbolga erishganimizdan to hozirgi kungacha katta e'tibor qaratilmoqda. Toshkent shahrida Toshkent islom instituti, Ko'kaldosh, Xadichai Kubro kabi o'rta-maxsus islom bilim yurti, Buxoroda Mir Arab va shu kabi bir qator diniy ta'lim dargohlari diniy ta'lim olish istagida bo'lgan turli yoshdagi o'quvchilar uchun ma'rifat dargohi sifatida xizmat qilmoqda.

"Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Bu borada buyuk ajdodlarimizning boy diniy-ma'rifiy merosi biz uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi"³. Yurtboshimiz turli davrlarda Nasaf shahrida 400 nafardan ziyod islomshunos olimlar yashab faoliyat olib borganligini qayd etib, ularning ilmiy merosini o'rganish, asarlarini bugungi tilimizda tushunarli tarzda nashr etishni muhim vazifalardan biri deb ta'kidlaydi. Xususan, Abu Muin Nasafiy,

¹ Mirziyoyev Shavkat "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 283 b.

² Mirziyoyev Shavkat "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 283 b.

³ O'sha asar 283 b.

Najmiddin Nasafiy, Aziiddin Nasafiy, Barokat Nasafiy singari ulug' allomalarning ma'naviy merosi bugun ham beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, buyuk vatandoshimiz Abu Muin Nasafiy bundan ming yil avval o'z asarlari orqali jaholatga berilgan kimsalarni to'g'ri yo'lga boshlagani, insoniylikni ulug'lashga chorlaganligi, zo'ravonlik va adolatsizlikni qoralagani tarixdan ma'lum. "Ushbu olimning asarlarini chuqur o'rganish va uni targ'ib etish maqsadida Qarshi davlat universitetida qoshida Abu Muin Nasafiy nomidagi ilmiy markazni tashkil etsak, allomaning ma'naviy merosini xalqimizga va ayniqsa, yoshlarimizga tanitishda muhim qadamni qo'ygan bo'lamiz"⁴. Shuningdek, Nasaf, ya'ni bugungi Qarshi shahri o'rta asrlarda islom sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan uchun "Madina" degan oliy maqomga loyiq ko'rilganligi bunga yaqqol misoldir. Chunki, islom olamida faqat 8 ta shahar shunday yuksak maqomga sazovor bo'lgan! Shahrisabz shahri esa, "Ilm va din qubbasi" nomi bilan mashhur bo'lgani to'g'risida asarda alohida to'xtalib o'tilgan.

Inson doimo kamolotga intiluvchi shaxsdir. Islom kamolotdir. U doimo barcha sohada, jumladan, insoniy aloqalar bobida ham kamolotga undaydi. Islomdagi insoniy aloqalarning asosini yaxshilik tashkil etadi. Bu barcha insoniy aloqalar faqat yaxshilikdan iborat bo'lishi uchun harakat qilish deganidir"⁵. Atrofimizdagi muhtojlarga agar moddiy tomondan yordam berishga imkon bo'lmasa, hech bo'lmaganda yaxshi so'z aytishimiz, ma'naviy tomondan ularni qo'llab-quvvatlashimiz ham bir yaxshilikdir. Insonlar hamma vaqt yaxshilik qilishga qodir bo'lishi uchun esa, albatta avvalo oiladagi olgan tarbiya va ilmi mustahkam bo'lishi kerak. Ilm⁶ islomda johillikka qarshi kurashda najot sifatida aytiladi. "Imom G'azzoliy aytadi: "Ilm bir narsani xuddi o'zidek idrok qilishdir"⁷. Albatta ilm yo'lini tutgan inson najot yo'lini ya'ni, eng sharafli yo'lni tanlagan bo'ladi! Xoh u diniy ilm yoki xoh dunyoviy ilm bo'lsin, insonlarga faqat hayr va ezgulik yo'lida xizmat qilsa bas! Zero, Yaratgan faqat insongagina ilm olish, tafakkur qilish ne'matini ato etdi! Qur'oni karim insoniyatga ilm orqali ikki dunyo saodatiga erishish yo'lini ko'rsatdi. U ilmning afzalliklari haqida insonlarga xabar beradi va ularni ilm olishga chorlaydi. Demak, Qur'oni karim ham ilm, ham hayot kitobidir. Inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan odob-axloq tarbiyasining barcha jihatlari muqaddas kitobimiz Qur'oni karim, hadislar va shariat ko'rsatmalarida yetarlicha bayon etilgan. Umuman olganda, hadislar ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plami bo'lib, u ahloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon

⁴ Mirziyoyev Shavkat "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023. - 284 b.

⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Ruhiy tarbiya-Xulqlanish. T.: "Hilol-Nashr", 2021. - 269 b.

⁶ Islom ensiklopediyasi Husniddinov Zuhridin tahriri ostida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti", 2004. - 107 b.

⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Ruhiy tarbiya-Poklanish. T.: "Hilol-Nashr", 2021. - 31 b.

bilan bog‘liq masalalarga yuksak e‘tibor beriladiki, beixtiyor o‘quvchini chin insoniy fazilatlarni o‘zlashtirishiga chorlaydi. Payg‘ambarimizning "Ilm olish har bir musulmon uchun farzdir" degan hadislarini negizida islomning ilmga bo‘lgan yuksak e‘tiboridan dalolat beradi. U zotni hadislarining salmoqli qismini ota-onaga munosabat, farzandlar tarbiyasi, ilmga muhabbat, sabr-bardosh, shukronalikka da‘vat, o‘zaro mehr-oqibat, mehmondo‘stlik, yetimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va kamtarlik va kamsuqumlik, halol luqmani sharaflash, samimiyat ila rostgo‘ylik singari bebaho ma‘naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, islom ahloqiy ma‘naviy qadriyatlari shunchaki tasodifiy to‘plami emas, balki mukammal bir tizim holiga keltirilgan bo‘lib, bunda, albatta so‘zsiz buyuk muhaddislardan Imom al-Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. Ma‘lumki, Imom Buxoriy islomda o‘z ahamiyatiga ko‘ra, Qur‘oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahih Buxoriy"⁸ muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma‘rifiy islom to‘g‘risidagi ta‘limotni keng yoyish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi. Shu o‘rinda Imom al-Buxoriyning munofiqlik to‘g‘risidagi hadislarini keltirib o‘tishni lozim topdim: "Munofiqlikning uch alomati bordir. So‘zlasa yolg‘on so‘zlar, va‘da bersa bajarmas, omonatga hiyonat qilar"⁹. Aytaylik,, e‘tiqodsiz va ilmsiz oila muhitida o‘sgan bir farzand boshidan halol va harom haqida biror tushunchaga ega bo‘lmasa uning kelajagi ayanchli bo‘ladi. Haromdan hazar qilmagan kimsa hadisda keltirilgandek qasamxo‘r va lafzsiz, birovning haqqiga hiyonat qilishdan qo‘rqmaydi. Yana bir qancha salbiy illatlar hisoblanadigan sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, zinakorlik, o‘g‘rilik va qotillik kabi jirkanch tuban ishlardan tap tortmaydigan nosog‘lom muhitdan chiqqan imonsiz kimsalarning kelgusida jamiyat uchun keltiradigan aynan ma‘naviy zararini xech nima bilan qoplab bo‘lmaydi.

Islomda imon¹⁰ tushunchasi musulmon ahloqining yuksak darajasini anglatadi. Imonli bo‘lishning mohiyatini hayo, andisha, shirin so‘zlilik, halollik va adolatlilik, or-nomuslilik, vijdonlilik, vafodorlik, mehnatsevarlik, sahovatlilik, mehr-muhabbatlilik kabi ahloqiy qadriyatlardan iborat ekanini ko‘ramiz. Shuning uchun, imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilish shu o‘rinda maqsadga muvofiq degan fikrdaman. Chunonchi, diniy imonda hamma narsani yaratguvchi zot Allohga, dunyoviy imonda esa, odamiylikka, chin insoniylikka urg‘u beriladi. Ularning har ikkovi ham aslida shaxsni chinakam hazrati inson nomiga loyiq

⁸ Erkayev Abdurahim. Milliy g‘oya va ma‘naviyat. T.: "Ma‘naviyat", 2002. -138 b.

⁹ Imom Ismoil al-Buxoriy Sahih Buxoriy 1-jild T.: "Qomuslar Bosh tahririyati", 1991. -11 b.

¹⁰ Islom ensiklopediyasi Husniddinov Zuhridin tahriri ostida "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti", 2004. -112b.

bo‘liib tarbiya topishiga qaratilgan. Imonli odam boshqalarning diliga ozor bermaydi, balki odamlar qalbiga nur, ziyo ulashadi, ularni faqat yaxshi, ezgu amallarga o‘rgatadi va o‘rnak bo‘ladi. Imon insoniyat hayotida shu qadar hal etuvchi mavqega egaki, usiz chin ma‘nodagi inson ham, ahloq ham, demakki jamiyat ham bo‘lmaydi. Imonli odam barcha qiyinchilik yoki musibatga ongli ravishda bardosh bergan holda halollik, insof-diyonatlik, muruvvatlik kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etadi. Imoni mustahkam insonni ma‘naviy olami boy bo‘ladi, u dunyoviy hoy-u havaslar ketidan quvishni vaqtni behuda sarflash deb hisoblaydi.

Sharm-hayo ham imonlilik belgisi sanaladi. Sharm – har bir odamning nojo‘ya, yomon hatti-harakatlardan o‘zini tiya olish, uyalish hissi. Hadisi shariflarda aytilishicha, odam eng avvalo, o‘zidan uyalishi kerak. "Hayoni ulamolar turlicha ta‘rif qilganlar. Ibn Muflih Hanbaliy: "Hayoning haqiqati shuki, u bir xulq bo‘lib, go‘zal narsani qilishga, yomon narsani tark etishga boisdir"¹¹. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ruhiy tarbiya kitoblarida hayoning ikki xili-tug‘ma va kasb qilingan bo‘ladi deb yozadilar. Kasb qilingan hayo shariatda iymonning sho‘balaridan hisoblangan. Shariatda shunday hayo talab qilingan, tug‘ma hayo emas. Tug‘ma hayo o‘z-o‘zidan bor narsa. Shaxs kasb qilingan hayoni o‘ziga singdirishi, tug‘ma hayo darajasiga yetishi mumkin deyiladi. Ushbu fikrlarni aynan bugungi davrning naqadar dolzarb mavzusi ekanini o‘ylab ko‘rilsa maqsadga muvofiq. Negaki, xozirgi vaqtda o‘zbek degan nomini "unutib" qo‘ygan ayrim millatdoshlarimiz, mentalitetimizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan darajada bema‘ni so‘zlari, behayo kiyimi yoki turli qiliqlar bilan videoroliklari orqali ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlik istashmoqda. Bu naqadar achinarli holat. Yoki jamoat transportida, ko‘cha ko‘yda, nisbatan yoshlar orasidagi jargon so‘zlarni uyalmay ishlatishiga va muomala madaniyatining achinarli holatda ekanligining guvohi bo‘lamiz. Agarki, xalqimiz milliy mentalitetimiz, go‘zal qadriyatlarimizga hurmatni saqlagan holda, farzandlariga o‘rgatish va o‘rnak bo‘lishda sustkashlikka yo‘l qo‘ymasalar bu kelgusida jamiyatning farovon kelajagini mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlarimiz rivojida islomiy qadriyatlarining ahamiyati va o‘rni juda katta bo‘lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma‘naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g‘oyalar sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko‘plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Shuningdek, bu din o‘zining

¹¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ruhiy tarbiya-Tiklanish. T.: "Hilol-Nashr", 2021. - 349 b.

bunyodkorlik taomiliga ko‘ra ko‘plab me‘moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Islomiy qadriyatlar insonlarni avvalo ezgulik va tinchlikni qadrlashga, hayotda asl insoniy fazilatlarni qaror toptirishga da‘vat etadi! Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, ulug‘ ajdodimizning diniy ma‘naviy merosini ajralmas qismi bo‘lgan musulmon odob-ahloq qoidalarini, murosa qilish, samimiyat, o‘zaro hurmat va tushunib yashashga intilish har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti,2023. - 283 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya-Xulqlanish”. T.:“Hilol-Nashr”, 2021. – 462 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad “Yusuf Ruhiy tarbiya-Poklanish”. T.:“Hilol-Nashr”,2021. - 479 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad “Yusuf Ruhiy tarbiya-Tiklanish”. T.:“Hilol-Nashr”,2021. - 494 b.
5. Islom ensiklopediyasi Husniddinov Zuhridin tahriri ostida “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2004. -313 b.
6. Erkayev Abdurahim. Milliy g‘oya va ma‘naviyat. T.:“ Ma‘naviyat”, 2002. -239 b.
7. Imom Ismoil al-Buxoriy Sahihi Buxoriy 1-jild T.:“Qomuslar Bosh tahririyati”,1991. -403b.
8. www.ziyouz.com.